

LIBOSLARDA TRANSFORMATSIYA QO‘LLASH VA UNING AHAMIYATI

Berdiyeva Ra‘no Abduqodirovna

Farg‘ona Politehnika instituti.

+9989907801337 ranoberdiyavahon@gmail.com

(O‘zbekiston Respublikasi)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zgaruvchan transformatsiya uslubidagi kiyimlarni loyihalash masalasiga qaratilgan bo‘lib, uni ishlab chiqarish texnologiyasi muhokama qilinadi. Xolati o‘zgartirilgan kiyim konstruksiyalari va elementlarini loyihalash xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy dizaynning maqsadi va vazifalari ekologik va iqtisodiy yo‘nalish bilan bog‘liq holda o‘zgaruvchan kiyimlarni loyihalash. Maqolada kiyimning transformatsiya uslublaridan foydalanish har qanday vaziyatda zamonaviy bo‘lib o‘zgarishiga imkon berishi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Dinamika, gardirob, universal, funksionalist, konstruktor, ekologiya, transformer, yassi bichim metodi, modulli metod, kinetizm, kombinotiriya, o‘girish, almashtirish.

Bizning dinamika va energiyaga to‘la hayotimiz, vaqt tig‘izligi asrida garderobda barcha holatlar uchun – ish uchun ham, dam olish uchun ham mos bo‘lgan bir nechta universal liboslar bo‘lishi juda muhim va qulaydir. XX asrning 20-yillaridanoq ko‘pfunksiyali buyumlarni loyihalash vazifasi dizayner va konstruktorlar oldiga qo‘yildi. Ushbu yo‘nalish tarafdorlari “funktionalistlar” nomi bilan atala boshlandi. Ularning universal buyumlarni yaratishga qaratilgan harakatlari inson ehtiyojlarini qondiribgina qolmay, balki o‘sha paytda jamiyat oldida turgan ekologik vazifa – resurslarni tejash imkoniyatini ham taqdim etardi. Shu tariqa transformer-buyumlar yaratila boshlandi. Faol turmush tarzi, ko‘p sayohat qilish, ob-havo sharoitlarining o‘zgarishi va har doim chiroyli ko‘rinishga intilish transformer-kiyimlar yaralishiga asos bo‘luvchi shartlardir. Transformatsiyalanuvchi obyekt “qayta konstruksiyalanish” asosida yangi estetik va kostruktruktiv holatni olishga qodir bo‘ladi.



Transformatsiyalanuvchi kiyim – bu turli buyum ko‘rinishlariga aylana oladigan yoki xususiyatlarini o‘zgartira oladigan harakatlanuvchi tuzilma.

Transformatsiya – bu ma’lum buyumning mavjud xususiyatlari, shakli, ko‘rinishining o‘zgarishi, almashinishi. Bu obyektning mavjudlik yoki ekspluatatsiya jarayonida o‘zining dastlabki shakl va parametrlarini o‘zgartira olish xususiyatidir.

Transformer kiyim – bir kiyimni bir necha vaziyat uchun almashtirib kiyish, yagona nusxadagi kiyimning ko‘plab variantlarini yaratishdir (2-rasm).

Transformatsiyalanuvchi kiyimlar loyihalashning turli usullari mavjud. Ular quyidagicha:



1-rasm. 3d xolatda transformatsiyalanuvchi libos.

❖ “cho‘zilish-qisish” – transformatsiyalanish buyum chiziqli o‘lchamlarining o‘zgarishi hisobiga amalga oshadi, bu usulda yuqori elastiklikka ega bo‘lgan matolarni qo‘llash tavsiya etiladi;

❖ “ajratish-qo‘shish” – alohida yechiluvchi detallarni qo‘llash hisobiga yangicha ko‘rinish olish (jiletga yeng o‘rnatish hisobiga kurtkaga aylanish);

❖ ❖ “tartibga solish-yig‘ish” – turli fiksatorlar, bretel, xlyastik va boshqalar hisobiga uzunlik, shakl, yopishish darajasini o‘zgartirish;

❖ ❁ “o‘rash-yoyish” – buyum alohida elementlarining hajm va shakllarini o‘rash-yoyish hisobiga o‘zgarishi. Masalan, yeng uzunligi, yoqa hajmi kabilar;

❖ ❁ “yo‘qolish-paydo bo‘lish” – buyumning maxsus “cho‘ntaklari”dan alohida elementlar yoki detallarning paydo bo‘lishi, masalan, yig‘iluvchi kapyushon.

❖ “almashtirish” – bir elementning yechilib, o‘rniga boshqa element ulanishi, masalan, uzun yeng o‘rniga kalta yeng;

❖ “o‘girish” – teskari o‘girish hisobiga buyumning yangicha ko‘rinishiga erishish; ❁ “ko‘chirib o‘tkazish” – buyumning joylashuv chiziqlarini o‘zgartirish, masalan, yelka chizig‘idan bel chizig‘iga. Quyidagi transformatsiyalash metodlari mavjud:

- ❖ Yassi bichim metodi.
- ❖ Modulli metod.
- ❖ Kinetizm.
- ❖ Kombinatoriyali metod.

Transformatsiyalanuvchi kiyim shuningdek turizm uchun ham ayni muddaodir. Har bir sayohatchi yo‘l sumkasidagi buyumlarning har bir grammi qanchalik ahamiyatli ekanligini juda yaxshi biladi. Shuning uchun ham bagaj og‘irligini va ekspluatatsiyasini yengillashtiruvchi bunday kiyimlar juda qulay. Qulaylik va funkcionallikdan tashqari transformatsiyalanuvchi kiyim sayyoraning ekologik holatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Sayyoraning ifloslanishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri 204 kiyim ishlab chiqarish masshtabi va darajasiga bog‘liq. Shuning uchun ham kiyimning ko‘pfunksiyali bo‘lishi va bir model o‘zida bir nechta obrazlarni jamlay olishi odamlarni doimiy ravishda garderobini to‘ldirish ehtiyojidan saqlaydi. Natijada insonlarda mas’uliyat va javobgarlik fazilatlarini ham tarbiyalanib boradi.

Research Science and Innovation House





2-rasm. Kiyimda transformatsiya qo‘llash.

Xulosa: Transformatsiyaning afzalligi sifatida birinchi navbatda uning ko‘pfunksiyaliligi va turli faoliyat doiralarida qo‘llanilishini ta’kidlash lozim. Masalan, qutqaruvchilar, shifokorlar, o‘t o‘chiruvchilar, sportchilar faoliyati uchun mos keladi. Lekin shunga qaramay, transformatsiyalanuvchi kiyimning kundalik hayotdagi ahamiyati ham oz emas. Garderobida hech bo‘lmasa bitta shunday kiyimi mavjud bo‘lgan odamning hayoti birmuncha yengillashishi tayin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Valiyev.G.N, Berdiyeva.R.A. O‘QUVCHILARDA KREPDESHIN MATOSI ASSORTIMENTI TUSHUNCHASINI TURLI METODLAR ORQALI O‘QITISH. FARPI “YENGIL SANOAT TARMOQLARI, MUAMMOLARI, TAXLIL VA YECHIMLARI” Respublika ilmiy-amaliy anjumani konferensiyasi 2022
2. Berdiyeva.R, Abduraximova .M. “NOTIPAVIY QOMATLI AYYOLLARNING O‘LCHAMLARI VA TANA TURLARINING FARQLANISHI” SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022
3. Tursunova X.Sh, Berdiyeva R.A. “TEENAGE GIRLS' RANGE OF MODERN DRESSES.” Results of National Scientific Research SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL 5 noyabr.2022
4. Valiyev.G.N,Berdiyeva.R “O‘SMIR YOSHDAGI QIZLARGA ZAMONAVIY KIIYIM ASSORTIMENTLARI UCHUN TAVSIYALAR” NAMTI

xalqaro konferensiya “Tikuv-trikotaj sanoatida innovatsion texnologiyalar, ishlab chiqarishdagi muammo, tahlil va sohani rivojlanish istiqbollari” 7 okt. 202

5. Sadiqovna, A. M. (2022). Determining the Type of Clothing Suitable for Women With An Non Typical Figure. Texas Journal of Engineering and Technology, 10, 22-26.

6. Sodiqovna, A. M., & Abduqodirovna, B. R. N. (2022). NOTIPAVIY QOMATLI AYYOLLARNING O’LCHAMLARI VA TANA TURLARINING FARQLANISHI. Science and innovation, 1(A3), 284-288.

7. Jakhongirovna, X. D. (2022). Modern Transformation Methods of Sewing Preschool Children’s Clothes. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 5, 193-199.

8. Jaxongirovna, X. D. (2022). BOLALAR KIYIMLARI TIKISHNING TRANSFORMATSIYA USLUBLARI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(13), 255-259.

9. Xojiyev A, Xoshimova M. “Ipak matolaridan foydalanib, ayollar koftasini tikish texnologiyasini takomillashtirish”. // “Fan va texnologiyalar taraqqiyoti”. Ilmiytexnikaviy jurnal. №8/2020. 123-128-bet.

10. Муминов Б.Б., Хошимова М.Х. Снижение запыленности путем стабилизации силы тяжести при вентиляции воздуха на прядильных предприятиях.

11. qizi Tursunova, X. S., & Berdiyeva, R. N. A. (2022). TEENAGE GIRLS'RANGE OF MODERN DRESSES. Results of National Scientific Research International Journal, 1(7), 145-152.

Research Science and Innovation House